

## MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INFLATSIYANING TA'SIRI

**D.Jabborov**

Jizzax politexnika instituti  
Iqtisodiyot va menejment kafedrası katta o'qituvchisi

**J.Xoliqov**

Kibersport fakulteti talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.16081754>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inflatsiyaning iqtisodiy mohiyati, asosiy sabablari va turlari tahlil qilingan. Maqolada talab va taklif inflyatsiyasi, inflatsiyaning sur'ati, ko'rinishlari hamda ularning iqtisodiyotga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, inflatsiyaga qarshi kurashish choralariga alohida e'tibor qaratilgan. Inflatsiya — iqtisodiy siyosatning muhim obyektı sifatida ko'rib chiqiladi va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish usullari tavsiflanadi.

**Kalit so'zlar:** Inflatsiya, talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi, giperinflyatsiya, pul-kredit siyosati, narxlar darajasi, iqtisodiy siyosat, byudjet taqchilligi.

**Annotation.** This article analyzes the economic essence, main causes, and types of inflation. It discusses demand-pull and cost-push inflation, the pace and forms of inflation, and their impact on the economy. Special attention is given to anti-inflationary measures. Inflation is examined as a key object of economic policy, with an emphasis on methods to mitigate its negative effects.

**Key words:** Inflation, demand-pull inflation, cost-push inflation, hyperinflation, monetary policy, price level, economic policy, budget deficit.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarning barqarorligi, aholining sotib olish qobiliyati va ishlab chiqarish jarayonining izchilligi iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonlarga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bu — **inflatsiya**dir. Inflatsiya — bu mamlakat iqtisodiyotidagi umumiy narxlar darajasining doimiy o'sishidir. U iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi, aholining real daromadlarini pasaytirishi va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.

Inflatsiya — bu muomaladagi pul massasi bilan tovarlar va xizmatlar hajmi o'rtasidagi nomutanosiblik natijasida narxlar umumiy darajasining ko'tarilishi. U iqtisodiy muvozanatning buzilishiga olib keladi. Inflatsiyaning past darajasi iqtisodiy o'sishga yordam berishi mumkin, ammo uning yuqori yoki nazoratsiz shakli salbiy oqibatlarga sabab bo'ladi.

Inflatsiyaning asosiy sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Pul massasining haddan tashqari ko'payishi;
- Ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi;



- Narxlar bozorida monopolistik holat;
- Davlat byudjeti taqchilligi va uni qoplash uchun pul bosib chiqarish.

Inflatsiyani turli mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin:

#### A) Kelib chiqish sabablari bo'yicha:

1. **Talab inflatsiyasi (Demand-pull inflation):** Bu holat bozor talabining taklifdan ortib ketishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, aholining daromadlari oshsa-yu, ishlab chiqarish hajmi o'zgarishsiz qolsa, talab inflatsiyasi yuzaga keladi.

2. **Taklif inflatsiyasi (Cost-push inflation):** Ishlab chiqarish xarajatlarning, xususan xomashyo va ishchi kuchi narxining oshishi narxlar ko'tarilishiga olib keladi. Bu turdagi inflatsiyada ishlab chiqaruvchilar narxlarni majburan oshirishadi.

#### B) Sur'atiga qarab:

1. **Mo'tadil inflatsiya (Creeping inflation):** Narxlar yiliga 10% gacha o'sadi. Bu turdagi inflatsiya nazorat ostida bo'ladi va iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazmaydi.

2. **Tez inflatsiya (Gallopning inflation):** Narxlar yiliga 10-100% oralig'ida o'sadi. Bu holat aholining real daromadiga salbiy ta'sir qiladi.

3. **Giperinflatsiya (Hyperinflation):** Narxlar oylik asosda 50% dan ko'proq o'sadi. Pul qadrsizlanib, iqtisodiy tartibsizliklar vujudga keladi.

#### C) Oqibatlariga qarab:

1. **Ochiq inflatsiya:** Narxlar oshishi ochiq bozor sharoitida sodir bo'ladi. Davlat narxlarni nazorat qilmaydi.

2. **Yashirin inflatsiya:** Davlat narxlar ustidan qat'iy nazorat o'rnatgan bo'lsa-da, mahsulotlar sifati pasayadi, defitsit paydo bo'ladi.


#### D) Boshqa shakllari:

1. **Import qilingan inflatsiya:** Tashqi bozorlarda narxlar o'sib ketganida, bu ichki narxlarning ham oshishiga sabab bo'ladi.

2. **Pul inflatsiyasi:** Pul massasining haddan tashqari ko'payishi sababli yuzaga keladi.

Inflatsiya har doim ham salbiy holat emas. Ma'lum darajadagi inflatsiya iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin. Biroq inflatsiyaning yuqori darajasi quyidagi oqibatlarga olib keladi:

- Aholi real daromadlarining pasayishi;
- Moliyaviy tizimga ishonchning yo'qolishi;
- Valyuta kursining beqarorlashuvi;
- Sarmoyalar oqimi kamayishi.



### Inflatsiyaga qarshi kurash usullari

Inflatsiyani jilovlash uchun quyidagi iqtisodiy choralar qo'llaniladi:

- Pul-kredit siyosatini qat'iy lashtirish (markaziy bank foiz stavkalarini oshiradi);
- Byudjet taqchilligini kamaytirish;
- Bozor raqobatini kuchaytirish;
- Import siyosatini liberallashtirish;
- Ishlab chiqarishni rag'batlantirish.

Inflatsiya — bu zamonaviy iqtisodiy tizimlarning ajralmas qismi bo'lib, u turli shakllarda va darajalarda namoyon bo'ladi. Inflatsiyaning mohiyatini, sabablari va shakllarini chuqur o'rganish — iqtisodiy barqarorlikka erishish yo'lida muhim qadamdir. Inflatsiyaga qarshi kurashda samarali monetar va fiskal siyosat muhim rol o'ynaydi. Aynan shunday yondashuvlar orqali o'z iqtisodiy muvozanatini saqlab qolishi va aholining farovonligini ta'minlashi mumkin. davlat o'z iqtisodiy muvozanatini saqlab qolishi va aholining farovonligini ta'minlashi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy materiallari – [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
2. Barro, R. J. Makroiqtisodiyot. – T.: "Fan va texnologiya", 2022.
3. Krugman, P., Wells, R. Makroiqtisodiyot asoslari. – Moskva: 2020.
4. G'ofurov U.T., Narzullayev T. Makroiqtisodiyot nazariyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2021.
5. Statistika agentligi va Jahon banki hisobotlari.

